

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION

UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CENTER
FOR DEVELOPMENT OF INNOVATIVE METHODS
IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES**


THE EMBASSY OF THE UNITED STATES OF AMERICA IN UZBEKISTAN

ASSESSMENT IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES: ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND SOLUTIONS

INTERNATIONAL CONFERENCE



Ministry of
Higher and
Secondary
Specialized
education



Ministry of
Public
Education



Embassy of
United States of
America
in Uzbekistan



Uzbekistan
State World
Languages
University



Uzbekistan
Scientific-
Practical
Innovation Center



Fledu.uz
Foreign
Languages in
Uzbekistan
E-journal

Tashkent
April 9-10, 2021

Geldiyeva Xursandoy
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti, talaba*

Abdullayeva Umida
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'qituvchi*

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA BAHOLASH: ERISHILGAN YUTUQLAR, MUOMMOLAR VA YECHIMLAR

Abstract: Nowadays we can see that due to the advancement of science and technology, foreign languages are being developed for easy and effective teaching and assessment. This article evaluates assessment, types of assessment in foreign language teaching, and why the learning process is evaluated?- solutions to similar problems are given.

Key words: Foreign languages, assessment, science, technology, types of assessment, functions, daily, thematic, total assessment.

Annotatsiya: Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi sababli chet tillarini oson va samarali o'qitish va uni baholash tizimlarining rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda baholash, baholash turlari va nega ta'lim jarayoni baholanadi?- shu va shu kabi muammolarga yechimlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, baholash, fan, texnika, baholash turlari, funktsiyalar, kunlik, tematik, umumiy baho.

To'g'risini aytganda, baholash- bu shaxsning (asosan talaba yoki o'quvchi) bilim darajasini, shu fanni yoki tilni bilish ko'nikmasini (malakasi) va munosabatini o'lchov darajasida hujatlashtirish jarayoni. Baholash atamasini biz talaba (o'quvchi), shuningdek o'quv jamoasiga (sinf, seminar yoki talabalar uyushgan guruhining) faoliyatiga munosabat bildirish uchun ishlatamiz.

Ta'limda tizimida baholash bu olingan bilim, nutq ko'nikmalari va qobiliyatlarining ahamiyati, ko'lami yoki qiymatini aniqlashga qaratilgan harakatdir. Ta'limda qo'llaniladigan baholashning yakuniy maqsadi amaliyotchilar va tadqiqotchilarning nazariy asoslariga, ularning inson ongining mohiyati, bilimlarning kelib chiqishi va o'quv jarayoni haqidagi taxminlari va ilmiy qarashlariga bog'liq. Baholash o'qituvchilar va talabalar uchun ham foydalidir. O'qitish jarayonini boshqarish orqali o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini, ko'nikmalarini va qobiliyatlarini chet tilini o'qitishning yangi, yanada samarali usullarini rivojlantirishga qodir. Baholash o'qituvchiga o'z g'oyalarini, chet tillarini o'qitishni tashkil etish usullarini isbotlashga yordam beradi. Bu talabalar uchun ham foydalidir. Chet tilni o'rganishda o'zlarining muvaffaqiyatlarini his qilish talabalarni rag'batlantiradi va yangi ishlarga ilhomlantiradi [1].

Shuningdek, xorijiy tilni o'rganuvchilar, talaba yoki o'quvchilarni maqsadli ravishda ikkiga bo'lishimiz mumkin. Bir turlar o'quv dargohidagi (oliygoh, maktab va b.q) boshqa fanlar qatori chet tilini ham yaxshi o'qishga harakat qilishadi, boshqalari esa kelajakda yaxshi ish topish yoki chet davlatga ketish uchun o'rganishadi. Ta'lim jarayonida til o'rgatishda baholashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, boshqa darslik fanlardan farqli o'laroq, xorijiy tillarni o'rgatishda o'qish, yozish, eshitish va og'zaki nutq qobiliyatlarini tekshirish orqali baholanadi. Baholash jarayonida talaba tomonida chet so'zlarni qanchalik to'g'ri talaffuz qilinilayotganligi va yangi so'zlarni yodlash darajasiga ham e'tibor beriladi.

Chet tilini o'qitishda baholashni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- Doimiy baholash;
- Tematik (mavzuga qarab) baholash;
- Vaqti-vaqti bilan baholash;
- Umumiy baholash;

Doimiy baho bu kunlik baholashdir. O'qituvchi buni har bir darsda baholaydi va bu o'qitish baholashning eng samarali vositalaridan biridir. Bu talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni o'rganilgan materialni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Tematik (mavzuga oid) baholash. Ushbu baholash turi olingan bilimlarni boshqarish, o'rganilgan mavzu bo'yicha nutq qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu mavzuni o'rganish bo'yicha ishlar tugagandan so'ng amalga oshiriladi. Baholash uchun berilgan vaqt o'quv materialining hajmi va murakkabligiga bog'liq.

Vaqti-vaqti bilan baholash ma'lum vaqtdan so'ng talabalarning bilimlari, nutq qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Masalan, o'quv yili davomida har chorakda yoki oyda. Baholash materiallari o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi.

Umumiy baholash o'quv yili oxirida imtihon shaklida amalga oshiriladi. U og'zaki va yozma usullarda bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi baho talabaning bilimini, nutq qobiliyatlarini hisobga olgan holda baholashga qaratilgan [2].

Yuqorida [2] manbada keltirilgan baholash turlariga formativ va summativ turlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Formativ baholash- bu baholashning keng tarqalgan shakli bo'lib, o'quvchining hozirgi bilimlarini o'lchaydigan diagnostik baholashdir. Bu diagnostik baholashda talaba o'z-o'zini baholaydi yoki zamonaviy tezkor metod orqali o'qituvchi talaba bilimini tekshiradi.

Summativ baholash odatda dars oxirida amalga oshiriladi yoki loyiha (o'qituvchi tomonidan tuzilgan) odatda talabalarning kurs darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu baholash turi bo'lib talabalarning bilimlarini baholaydi.

Aniq ma'lumot o'rnida shuni ayto lamanki, yurtimizda joylashgan barcha universitetlar qatori bizning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazaryasi va amaliyoti fakulteti ham chet tillarini o'rgatishga iqtisoslashtirilgan bo'lib, bizning har bir chet tili darslarimizda o'qituvchilarimiz tomonidan shu tilni o'qitishda turli xil baholash metodlaridan foydalanishadi. Misol o'rnida bizga o'tiladigan xorijiy til (ingliz tili) darsini aytadigan bo'lsam, o'qituvchimiz ham til bilish darajamizni yuksaltirish uchun turli xil baholash metodlarini qo'llaydilar. O'qituvchimiz doimiy baholash metodi orqali mustaqil bajarishimiz uchun uyga berib yuborilgan vazifani dars boshida har bir talabadan so'rab baholaydilar. Shu so'rab baholashlari sababli ham bizga mustaqil bajarish uchun berilgan uy vazifasini ma'suliyat bilan bajarishga harakat qilamiz. Bundan tashqari tematik baholash orqali dars mavzusi e'lon qilinganligidan keyin u haqidagi fikrlarimizni qisqacha chet tilida (ingliz tili) har birimizdan tezkorlik bilan so'rab chiqadilar, bu esa og'zaki nutq qobiliyatimizni oshirishga yordam beradi. O'qituvchimiz yana formativ baholash usuli orqali zamonaviy tezkor metodlar yordamida yodlagan so'zlarimizni yodimizga tushurib takrorlatadilar, bu esa yodlagan so'zlarimizni unutvomasligimiz uchun bizga juda foydalidir. Dars so'ngida summativ baholash metodi orqali o'tib bergan mavzulari bo'yicha bizda tushuncha paydo bo'lganligini sinash maqsadida turli xil qisqacha savollarni tez-tez berib barchamizdan so'raydilar. Bu esa o'tib berayotgan mavzularini diqqat bilan tinglab, shu mavzu bo'yicha bergan ma'lumotlarini qunt bilan o'rganishimiz kerakligini anglatadi, bizga bu til o'rganish jarayonimiz oson va samarali bo'lishi uchun ajoyib baholash usulidir. Shu bilan birga barcha o'qituvchilarimiz o'quv yili (oyi, semestr) oxirida umumiy baholash usuli orqali barcha talabalarni har bir fandan o'tilgan mavzular yuzasidan tuzilgan og'zaki yoki yozma shakldagi sinov testlari orqali bilimlarini tekshirib baholashadi. Bu ham biz talabalarga (o'quvchilar)

o'tilgan mavzularni takrorlab bilimimizni mustahkamlab borish uchun samarali baholash usulidir. Qisqacha qilib aytganda, barcha fanlar, asosan xorijiy tillarni o'rganishda baholash juda muhim. Biz shu baholash turlari orqali bilimimiz qay darajada ekanligi va uni qanday qilib yuksaltirish kerakligini o'rganolamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, baholash- bu savodxonlikni samarali rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Samarali baholash dasturisiz talabalar qay darajada o'rganganligi, o'qitish samarali bo'lganmi yoki qaysi usul talabalarning talablariga eng mos kelganligini bilib bo'lmaydi. Baholashdan doimiy ko'zlangan maqsad talabalar (o'quvchilar) bilimlarini nazorat qilish, yaxshilash va yuksaltirishdir. So'z oxirida shuni aytamanki, har doim baholash orqali yutuqlarni yuksaltirish, kamchiliklarni to'ldirish va til o'rganishga bo'lgan harakat, qiziqishni oshirish lozim. Chet tillarini o'rganish, dunyo bilish, do'st orttirish demakdir, shuning uchun doim, turli xil qiyinchiliklarga qaramay, til o'rganishdan aslo to'xtamasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://moluch.ru/archive/139/39000/>
2. Alimov Sh.S. Zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan ma'ruzalar. Andijon, 2012
3. Исламгулова С. К. Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт.

Хасанова Ф.М.

*Андижон давлат университети
PhD, катта ўқитувчи*

ОТМ ИХТИСОСЛИГИ ЧЕТ ТИЛИ БЎЛМАГАН ФАКУЛЬТЕТЛАРДА НУТҚИЙ ЖАНРЛАР ЮЗАСИДАН НАЗОРАТ ТОПШИРИҚЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ЯРАТИШ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада ОТМ ихтисослиги чет тили бўлмаган факультетларда жанрий ёндошув асосида тил ўргатиш хусусида фикр юритилади. Бунда касбий, академик ва маиший нутқий жанрларнинг лингвистик, социолингвистик, прагмалингвистик хусусиятларига бағишланган машқлар тизимини яратиш ҳамда нутқий жанрлар структурасига оид тестлар тузиш, оралик ва якуний назорат турлари мазмунига сингдириш кабиларга эришиш учун соҳа мутахассислари, тадқиқотчи – методистлар, чет тили ўқитувчилари олдида нутқий жанрлар юзасидан умумий маълумотларни жамлаш, назорат топшириқларини шакллантириш ва баҳолаш меzonларини яратиш каби бир қатор вазифалар қўйилиши таъкидланади.

Калим сўзлар: жанрий ёндошув, тил ўргатиш, жанр, композиция, услуб.

Таълим соҳасига жанрий ёндашув, асосан, XX асрнинг 90-йилларидан кириб келди. Инглиз тадқиқотчилари Ж.Суэльс, Ж.Мартин, Р.Хасан кабилар жанрнинг ўзига хос схематик структураси мавжудлиги, яъни бошланиш, ўрта, якуний қисмлардан ташкил топган типик структурага эгаллигини ўз тадқиқотларида исботлаб бериш билан бирга жанрнинг қуйидагича турларини қайд этдилар: recipe, joke, anecdote, advertisement, note, chat, seminar, toast, biography, consultation, sign, essay, recounts, reports, prayers, sermons, conversations, songs, poems, letters, novels ... кабилар [2, 13]. Ҳозирги кунда фан ва таълимда жанрлар орқали тил ўргатиш жанрий ёндошув деб номланмоқда.

Олий таълим муассасалари ихтисослиги чет тили бўлмаган факультетлар талабаларининг кундалик ҳаётлари, илмий ва касбий фаолиятларида дуч келадиган

CONTENT

1.	PREFACE.....	2
2.	Abdinazarov Kh. Sh. ASSESSING ESP LEARNERS' ATTITUDES ON VISUALS	3
3.	Abdukadyrova G.B. ONLINE TOOLS IN ASSESSMENT PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LEARNER INVOLVEMENT	5
4.	Abdullayeva U. R. COMPREHENSIVE ASSESSMENT AS A MOTIVATION: MISTAKES, FEEDBACK AND STUDENTS' SUCCESS	7
5.	Abdullayeva I. Nuritdinova A. ASSESSMENT IN AVIATION	10
6.	Abdurakhimova U.S ISSUES OF ASSESSMENT OF CHILDREN WITH DISABILITIES	13
7.	Abuova J. TO MODIFY OR NOT TO MODIFY	16
8.	Akbarova S. ALIGNING LEARNING OUTCOMES, INSTRUCTION AND ASSESSMENT IN ACADEMIC ENGLISH MODULE	18
9.	Akhmadjonov K. ASSESSMENT AND ITS ROLE TO IMPROVE STUDENTS' WRITING: CRITICAL ANALYSIS OF MATERIALS	23
10.	Akhmedkhodjaev A. THE ASPECTS OF MOBILE-ASSISTED LANGUAGE LEARNING	26
11.	Aliboyeva B.V. AUTHENTIC ASSESSMENT IN TEACHING TOLERANCE IN THE PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION	28
12.	Andronova E. S. ASSESSMENT TECHNIQUES FOR ESP STUDENTS' READING SKILLS	30
13.	Ashirbaeva A.N. ASSESSING RECEPTIVE AND PRODUCTIVE SKILLS	34
14.	Azizov S.U. DIGITALIZATION OF ASSESSMENT IN IMPROVING THE WRITING COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION	37
15.	Badalbaeva M. HOW TO DEVELOP THE USE OF PHRASAL VERBS, IDIOMS AND COLLOCATIONS WITH THE HELP OF WEBLOGS?	41
16.	Bafoyev F. B. Shodiyev M. Sh ISSUES WITH COMPATIBILITY OF COURSE CONTENT AND ACTUAL TEST IN UZBEK CLASSROOMS	43
17.	Bakhriddinova D. O. THE USE OF PEER EVALUATION IN TEACHING & LEARNING ESL	46
18.	Bakhronova Z.R. Abbosova Z.A FEATURES OF THE ASSESSMENT OF KNOWLEDGE IN A FOREIGN LANGUAGE (SPEAKING, WRITING) ACCORDING TO THE POINT-RATING SYSTEM	48
19.	Dadaboyeva G. THE ROLE OF LOAN WORDS IN LEARNING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE	51

113.	Ким С.С. Кабулова Г.	МОТИВАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ САМООЦЕНКИ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ	310
114.	Максудова Х.Ф.	МАҲСУС МАҚСАДЛАРГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРНИ ҚЎЛЛАШДА БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ	313
115.	Махсудова О. Н.	ПРИНЦИПЫ ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	315
116.	Муминова Л.Р. Фазилова Н.М.	ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ЗАДЕРЖКОЙ ПСИХО-РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА	320
117.	Назарова С.А.	СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ: ЛЕКСИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	323
118.	Рахманова Н.Т.	К ВОПРОСУ О БЕЗОТМЕТОЧНОМ ОЦЕНИВАНИИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ	326
119.	Савриддинова Ф.Р.	ОТ ТРАДИЦИОННОЙ СИСТЕМЫ ОЦЕНИВАНИЯ К АЛЬТЕРНАТИВНОЙ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	328
120.	Таджибаева Д. А.	ОЦЕНКА СФОРМИРОВАННОСТИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ	331
121.	Tashniyazova Sh. X. Hamraqulova B.A.	O`QUVCHILARNING SHET TILDAN BILIM, KO`NIKMA VA MALAKALARINI VANOLASHNING ANAMIYATI	334
122.	Темирова Ш.Р	ТАЛАБАЛАР ОҒЗАКИ НУТҚИНИ БАҲОЛАШНИНГ ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ	336
123.	Тошхонов М. Турдалиев Б.	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА	339
124.	Турдалиев Д. Э. Ташниёзова Ш. Х.	ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИ АҲАМИЯТИ	339
125.	Умарова Ф.З.	РОЛЬ ОЦЕНКИ В ЛИЧНОСТНО- ОРИЕНТИРОВАННОМ ОБРАЗОВАНИИ	344
126.	Умарходжаев М.Э. Азизова Н.	ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ ВИДОВ ОЦЕНИВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ	347
127.	Хазратова З.М.	МАҲСУС МАҚСАДЛАРГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНГЛИЗ ТИЛИ (ESP) ДАРСЛАРИДА БАҲОЛАШ	350
128.	Ҳамрақулова Б. Ачилов О.	ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ТЕСТЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ	350